



Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-sentyabr holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Ro'yxatdan o'tgan

34,8
ming.

Faoliyat ko'rsatayotgan

34,3
ming.

Yangi tashkil etilganlar

5,6
ming.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida Farg'ona viloyatida 5614 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2500 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6,2 mingta (22,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 34,3 mingtani tashkil etgan.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-sentyabr holatiga)

34,8 mingtani
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda



21,8 %


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati



2019-yilning 1-sentyabr holatiga 34759 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,5 % sanoatda, 8,1 % qurulishda, 25,2 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,3 % boshqafaoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (8773 ta) savdo, (7489 ta) sanoat, (2828 ta) qurilish, (1693 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1680 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1378 ta) tashish va saqlash, (1019 ta) axborot va aloqa, (783 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (9116 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 34298 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6235ta (22,2%) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)




Savdo




Sanoat




Qurulish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (6151 ta), Qo'qon shahri (4610 ta), Marg'ilon shahri (3420 ta), Uchko'prik tumani (1772 ta) va Dang'ara tumani (1638 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (802 ta), Furqat tumani (816 ta) hamda Yozyovon (737 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-avgust oylarida 5614 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2500 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarining o'sish surati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1349 ta), savdoda (2488 ta), qurilishda (384 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (207 ta), tashish va saqlashda (206 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (334 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (69 ta), va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (74 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



2488

Tashish va saqlash



193

Sanoat



1349

Qurilish



384

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



334

Axborot va aloqa



69

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



74

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



207


Boshqa turlar



503


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar asosiy qismi Farg'ona (873 ta), Qo'qon (652 ta), Marg'ilon (519 ta) shaharlarida, Oltiariq (332 ta), Quva (356 ta) va O'zbekiston (274 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (78 ta) hamda Yozyovon (109 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-sentyabr holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 28449 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonona



Oilaviy korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



366 ta

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 48,1 % o'sgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.




2019-yil 1-sentyabr holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 366 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 119 taga yoki 48,1 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 257 tasi qo'shma korxonalar, 109 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 257 tasi qo'shma, 109 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Xorijiy korxonalar

Jami

Qo'shma korxonalar




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 122 ta (33,3 %), Qo'qon 55 ta (15,0 %), Marg'ilon 23 ta (6,3 %), Quvasoy 21 ta (5,6) shaharlarida, Farg'ona tumanida 18 ta (5,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,5 %), Furqat tumani 4 ta (1,1 %), Qo'shtepa tumani 5 ta (1,4 %), Bag'dod tumani 8 ta (2,2 %), Buvayda tumani 7 ta (1,9 %) va Yozyovon tumani 3 ta (0,8 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-avgust oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 91 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 martaga ko'paygan.

Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 13 ta, Turkiya Respublikasi – 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 10 ta, Koreya Respublikasi – 11 ta va boshqa davlatlar – 52 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 40 ta, savdoda 16 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligi 14 ta, qurilishda 3 ta va boshqa korxonalarda 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-sentyabr holatiga)



2019-yil 1-sentyabr holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 28283 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 26,8 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-avgust oylarida 5376 tadan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2752 taga ko'proqdir.




•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng katta
ulushi

•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng kichik
ulushi



Farg'ona shahar
18,2 %



Beshariq tumani
2,7%



Qo'qon shahar
14,2%



Rishton tumani
2,8 %



Marg'ilon shahar
10,8%



Furqat tumani
2,2 %



Uchko'pik tumani
5,4 %



So'x tumani
2,2 %




Dang'ara tumani
4,9 %



Yozyovon tumani
1,9%


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 28572 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 8741 tasi (30,6 %) - savdoda, 7442 tasi (26,0 %) - sanoatda, 2810 tasi (9,8 %) - qurilishda, 1636 tasi (5,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1672 tasi (5,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1363 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 1017 tasi (3,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 591 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3300 tasi (11,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2487 ta), sanoatda (1348 ta), boshqa turdagi xizmatlar (285 ta), qurilishda (382 ta), tashish va saqlashda (206 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (193 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (334 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (69 ta), hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (72 ta) tashkil etilgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda





Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (830 ta), Qo'qon (630 ta), Marg'ilon (508 ta) shaharlarida, Oltiariq (319 ta) va Buvayda (262 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (75 ta), Furqat (123 ta) hamda Yozyovon (99 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




(1-sentyabr holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 45,8 % yoki 1616 tasi sanoat, 19,2 % yoki 678 tasi savdo, 13,5 % yoki 478 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,6 % yoki 268 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,2 % yoki 77 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 43 tasi qurilish, 0,9 % yoki 32 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,6 % yoki 305 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish
bo'limi

Tel.:71-230-87-37

